

QUYI ZARAFSHON VOHASI LANDSHAFTLARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI

Hikmatova G.I¹.

¹ Buxoro davlat pedagogika instituti
geografiya kafedrasida o'qituvchisi,

Annotatsiya: Quyi Zarafshon vohasi tabiiy geografik jihatdan Buxoro va Qorako'l vohalaridan iborat. Qoravulbozor vohasi esa tabiiy geografik jihatdan Paleo-Qashqadaryo o'rnida vujudga kelgan. Buxoro va Qorako'l vohalari Zarafshon vodiysining qadimgi va hamisha navqiron vohalaridan sanaladi. Ularning tarixi, iqtisodi, ijtimoiy hayoti asrlar davomida vodiyni Zarafshon daryosi bilan bog'liq bo'lgan. Zarafshon daryosining quyi qismi, ya'ni deltasi ko'p asrlardan buyon sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlardan hisoblanadi. Arxeologlarning isbotlashicha bu yerda birinchi sug'oriladigan yerlar miloddan avvalgi IV asrda paydo bo'la boshlagan.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, Qorako'l vohasi, delta, berk havza, geotizim, Zarafshon vodiysi, terassa, cho'llashish, fitomeliyatsiya, arid iqlim, agrotexnologiya, degradatsiya.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛАНДШАФТОВ НИЖНЕГО ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

Хикматова Г.Г.¹.

¹преподаватель кафедры географии

Бухарского государственного педагогического института,

Аннотация: К нижнему Зарафшанскому оазису в природно-географическом отношении относятся Бухарский и Каракульский оазисы. Оазис Каравулбазар, в свою очередь, сформировался в природно-географическом плане на месте Палео-Кашкадарьи. Бухарский и Каракульский оазисы считаются древними и одновременно постоянно обновляющимися оазисами Зарафшанской долины. Их история, экономика и социальная жизнь на протяжении веков были тесно связаны с рекой Зарафшан. Нижняя часть реки Зарафшан, то есть её дельта, издавна относится к районам, где высоко развито ирригационное земледелие. Согласно археологическим данным, первые орошаемые земли здесь появились в IV веке до нашей эры.

Ключевые слова: Бухарский оазис, Каракульский оазис, дельта, замкнутый бассейн, геосистема, Зарафшанская долина, терраса, опустынивание, фитомелиорация, аридный климат, агротехнология, деградация.

THE CURRENT STATE OF LANDSCAPE USE IN THE LOWER ZARAFSHAN OASIS

¹Teacher of Geography Department of Bukhara State Pedagogical Institute,

Abstract: The Lower Zarafshan oasis is geographically composed of the Bukhara and Qorako‘l oases. The Qoravulbozor oasis, in turn, formed naturally in the place of the Paleo-Qashqadarya. The Bukhara and Qorako‘l oases are considered the ancient yet ever-vibrant oases of the Zarafshan valley. Their history, economy, and social life have been closely linked to the Zarafshan River for centuries. The lower part of the Zarafshan River, that is, its delta, has long been one of the regions where irrigated agriculture has been highly developed. According to archaeologists, the first irrigated lands in this area began to appear in the 4th century BC.

Keywords: Bukhara oasis, Qorako‘l oasis, delta, closed basin, geosystem, Zarafshan valley, terrace, desertification, phytomelioration, arid climate, agrotechnology, degradation.

Quyi Zarafshon okrugi shu nom bilan ataluvchi daryoning quyi qismida joylashib, o‘z ichiga Buxoro va Qorako‘l vohalarini oladi. Zarafshon daryosining qadimgi deltalarida obod aholi manzilgohlari (Buxoro, Qorako‘l) yaratilgan. Ularda xalqimizning aql zakovati bilan yaratilgan mingdan ortiq madaniy, ma‘naviy va moddiy meroslari mujassam. Bugungi kunda ular turizmning 10 dan ortiq yo‘nalishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Geografik jihatdan Buxoro viloyati hududi berk havzada, Tinch okeandan 5500 km, Atlantikadan - 4000 km, Shimoliy Muz okeanidan 2500 km, Hind okeanidan 2000 km uzoqda, O‘zbekiston Respublikasining janubi-g‘arbida, Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-g‘arbiy Qizilqum cho‘lida joylashgan. Viloyat hududi 2 ta geotizimdan – cho‘l (88,6 %) va voha (11,4 %) dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (2017-2021 y.) ning **Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishida**¹ paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy

¹ 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova

agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Bunda bevosita inson xo'jalik faoliyati tomonidan minglab yillar davomida barpo etilgan vohalarning o'rni beqiyos.

Buxoro va Qorako'l vohalari Zarafshon vodiysining qadimgi va hamisha navqiron vohalaridan sanaladi. Ularning tarixi, iqtisodi, ijtimoiy hayoti asrlar davomida vodiyni Zarafshon daryosi bilan bog'liq bo'lgan. Albatta, bugun tadqiqotchilar uchun Zarafshon vodiysining geografik o'rni, chegaralari, relyefi, geologik va gidrologik rivojlanish tarixini bilish vohalarning taraqqiyoti va salohiyatini o'rganishlarida, kelajak uchun bashoratlashda asos bo'ladi.

Zarafshon vodiysi O'rta Osiyoning markaziy qismida, Turkiston-Oqtov bilan Zarafshon tizmalari orasida joylashgan. Vodiyni sharqiy tog'li qismi Tojikiston, g'arbiy tog' etagi va tekislik qismi O'zbekiston hududiga tegishli. Zarafshon vodiysi tektonik yo'l bilan vujudga kelgan bo'lib, hozirgi relyefining shakllanishida Zarafshon daryosining doimiy va vaqtli irmoqlari hamda shamol muhim rol o'ynagan. Zarafshon vodiysi Zarafshon muzligidan boshlanib, g'arbda Sandiqli cho'ligacha 781 km ga cho'zilgan. Vodiy shu masofada g'arbiy, janubi-g'arbiy yo'nalishda davom etadi va asta-sekin pasayib hamda kengayib boradi. Zarafshon vodiysi neogen davrigacha dengiz ostida bo'lgan. Alp orogenezida vodiyni quruqlikka aylangan. Zarafshon daryosi asrlar davomida o'z o'zanini chuqurlashtirib, terrasalar hosil qilgan. Zarafshon vodiysining sharqiy tog'li qismida vodiyni tor va chuqur, Turkiston va Zarafshon tizmalari undan tik ko'tarilib turadi. Quyi qismida vodiyni kengayib, O'zbekiston hududiga o'tgach, kengligi ayrim joylarda 60—70 km ga yetadi. O'zbekiston hududida Zarafshon vodiysining uzunligi qariyb 480 km bo'lib, bu qismida Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalari joylashgan.

Zarafshon daryosining quyi qismi, ya'ni deltasi ko'p asrlardan buyon sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlardan hisoblanadi. Arxeologlarning isbotlashicha bu yerda birinchi sug'oriladigan yerlar miloddan avvalgi IV-asrda paydo bo'la boshlagan.

Zarafshon daryosining o'rta qismida ekin maydonlarining kengayishi sababli Quyi Zarafshonda suv tanqisligi yuzaga kela boshladi, mahalliy aholi boshqa joylarga ko'chib keta boshladi. Bularni o'sha regiondagi tashlandiq yerlar, qabristonlar, eski bino qoldiqlaridan ham bilish mumkin.

Buxoro - Qorako'l vohalarida 1960 – 1965 yillargacha, geoekologik vaziyatning murakkablashuvida jiddiy xavf-xatarlar va ekologik muammolar bo'lmagan. Zarafshon havzasida sanoat korxonalarining tarkib topishi va rivojlanishi, aholi sonining ortishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, daryo suvining sug'orish, sanoat korxonalari, fermalar, maishiy kommunal sohalardan keng foydalanishi tufayli avvalo suvning va tuproq qoplamining, keyinroq atmosfera havosining ifloslanishi kuchayib bordi.

Yangi yerlarni o'zlashtirilishi va agrolandshaftlardan sug'orish me'yoriga amal qilmaslik oqibatida keying yillarda ko'pgina yerlarda grunt suvlari sathining ko'tarilishi kuzatilmoqda. Buxoro - Qorako'l vohalarida hozirgi vaqtda grunt suvlari sathi barcha hududlarda o'rtacha 2,1 metrni tashkil etadi. Bu esa sho'rlangan yerlar maydonining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Buning asosiy sababi sug'oriladigan ekin maydonlarining me'yoridan ortiq namlanishi, zovur suvlaridan sho'r yuvish va madaniy ekinlarni sug'orishda ishlatilishidir. N.Koryaking ma'lumotiga ko'ra, yerlarni noto'g'ri tekislash natijasida 24000 ga yer sho'rlangan, shundan 17 ming ga paxta maydonlarini tashkil etadi. Zarafshon deltasi sharoitida sug'oriladigan yerlarda sho'rlanish qurg'oqchil yillarda keskin oshadi. Keying yillarda, yer osti suvlari va tuproqning sho'rlanishi hududning shimoliy qismida orta boshladi.

Bu jarayon Sho'rko'l suv omborining qurilishi bilan bog'liq bo'lib, suv ombori atrofidagi tekisliklarda grunt suvlarining sathi ko'tarila boshlagan. Hozirgi vaqtga kelib Sho'rko'lga yaqin joylardagi yangi o'zlashtirilgan yerlardan 2 ming ga yaqin yerlar kuchli sho'rlanganligi kuzatilgan. Buxoro va Qorako'l vohalaridagi sho'rlangan yerlarning hozirgi holati quyidagicha: Sho'rlanmagan yerlar 66,2 ming ga (28 %), kuchsiz sho'rlangan yerlar 90,6 ming ga (40,5 %), o'rtacha sho'rlangan yerlar 59,4 ming ga (22,4%), kuchli sho'rlangan yerlar 16,8 ming ga (9,5%) ni

tashkil etadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Buxoro va Qorako'l vohalarida sug'oriladigan tuproqlarning 70 – 80 % turli darajada sho'rlangan.

Keying yillarda Buxoro va Qorako'l vohasida har gektar paxtazorga 220 kg azot, 120-130 kg fosfor va 50 kg ga yaqin kaliy o'g'itlari solib kelingan. Paxta bularning 20 – 40 foizini o'zlashtiradi va qolgan ximikatlar esa yer usti suvlarini ifloslaydi, tuproqlar va o'simliklarda to'planib boradi. Juda ko'p xo'jaliklarda yuqori hosil olish maqsadida mineral o'g'itlar me'yoridan bir necha barobar ko'p ishlatilib kelingan. Tuproqlarda, suvda ko'paygan bu mineral o'g'itlarning bir qismi, so'zsiz, sabzavot va poliz ekinlariga, mevalarga o'tadi. Bular orqali esa inson organizmlariga ta'sir qiladi.

Buxoro – Qorako'l vohalarida sug'oriladigan yerlarni zaharlayotgan yana bir guruh ximiyaviy preparatlarga pestidsidlar kiradi. Bir necha o'n yillar davomida o'ta zaharli butifos, xlorofos va boshqalar ishlatilib kelindi. Paxtazorlarning har gektariga pestidsidlar ishlatildi. 1970 yillarda rivojlangan chet el mamlakatlarida bu modda tabiatda uzoq saqlanuvchanligi va inson salomatligiga o'ta zaharliligi tufayli ishlatishni man qildi. O'zbekistonda bu ko'rsatma 1983 yildan berildi. Man qilinishiga qaramasdan Buxoro – Qorako'l vohalarining ko'plab jamoalarida yashirincha ishlatilib kelindi. Natijada vohaning sug'oriladigan tuproqlarida bu moddalarning man etilganiga o'n yillab o'tgan bo'lsada, me'yoridan 2 – 3 baravar oshiqqligi kuzatildi. Zarafshon deltasidagi barcha kanallar, ko'llar va suv omborlari suvining tarkibida yuqoridagi moddalar uchraydi. Ayniqsa bu zaharli kimyoviy moddalar Quyimozor suv omborining chiqarish kanalida ko'p uchraydi. Shuni ham qayd qilish kerakki Buxoro shahri aholisi ichimlik suvini Quyimozor suv omboridan oladi .

Zarafshon deltasida yashaydigan aholi ko'proq ichimlik suvi sifatida quduqlardan foydalanadi. Quduq suvi tarkibida ham ochiq suv havzalariga tushadigan mineral o'g'itlar, pestidsidlar uchraydi. Shu tufayli regionda aholi orasida turli xil kasalliklar (virusli gepatit, oshqozon ichak yo'llarining yallig'lanishi, yosh go'daklar o'limi) ko'paydi.

Zarafshon deltasida ekologik vaziyatning bu darajada jiddiylashuvining oldini

olish uchun kimyoviy preparatlardan butunlay voz kechish, tuproq unumdorligini oshirishda ko‘proq organik o‘g‘itlardan foydalanish, sug‘orishning me‘yoriga amal qilish, ichimlik suvining sifatini yaxshilashga e‘tibor bermoq zarur. Quyi Zarafshon vohasi landshaftlaridan to‘liq va samarali foydalanish uchun:

- Vohada yer-suv islohotlarini davom ettirish, ularni foydalanuvchilarga imtiyozlar berish va sotishni yo‘lga qo‘yish;

- turli darajada sho‘rlangan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini vaqtida sifatli va reja asosida amalga oshirish;

- sug‘orishning yangi va samarali texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish;

- ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekishni ta‘minlash;

- sof ekologik kimyoviy vositalardan keng va oqilona foydalanish;

- seleksiya, urug‘chilikni, agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish;

- qishloq xo‘jalikda band bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlarini moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etish;

- yer va suv munosabatlarini takomillashtirish va erkinlashtirish lozim;

- Buxoro viloyati qishloq xo‘jalik tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish.

Qorako‘l deltasi Zarafshon daryosining quyi qismida, Qizilqum va Sandiqli qumlari orasida joylashgan, maydoni 13 ming km.kv. Hududning 80 % i qumli cho‘l 20 % i vohadan iborat. Hududning asosiy qismi cho‘l zonasida joylashganligi, iqlimning quruq kontinentalligi bu hudud geotizimlarining cho‘llashuvga moyilligini ko‘rsatadi. Qorako‘l deltasida geotizimlarning cho‘llashuvini rivojlantiruvchi omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatamiz:

- a) Kon-qidiruv ishlari;

- b) O‘simliklarning turli maqsadlarda chopilishi;

- c) Yaylov chorvachiligi;

- d) Grunt suvlari sathining ko‘tarilishi va minerallashuvining ortishi;

- e) Sug‘orish natijasida deltada tuzning yig‘ilib qolishi;

f) Iqlimning ta'siri;

Yuqorida ko'rsatilgan va ayrim boshqa sabablarga ko'ra, Qorako'l deltasi geotizimlari degradatsiyaga uchramoqda. Bu jarayon nafaqat Qorako'l deltasida balki Quyi Zarafshon vohasi landshaftlarida kuzatilmoqda. Cho'llashuv jarayonining bu oqibatlarini oldini olish maqsadida ko'chma qumlarni mustahkamlash uchun cho'llarda fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish, ko'chma qumlar bosishi xavfidan saqlash maqsadida voha atrofiga ihota daraxtzorlarini tashkil qilish, vohalardagi mavjud zovur-drenajlarni tozalash hamda eng asosiysi aholining ekologik madaniyatini rivojlantirish zarur. Zarafshon deltasida ekologik vaziyatning jiddiylashuvining oldini olish uchun kimyoviy preparatlardan butunlay voz kechish, tuproq unumdorligini oshirishda ko'proq organik o'g'itlardan foydalanish, sug'orishning me'yoriga amal qilish, ichimlik suvining sifatini yaxshilashga e'tibor bermoq zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova [//http://www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Абдулқосимов А.А., Абдурахмонова Ю.Х., Давронов К.Қ. Зарафшон ботиғи воҳа ландшафтлари ва экологияси Тошкент, 2017. 102- б.
3. Абдулкасимов А. Ландшафтно-экологические исследования межгорных котловин Средней Азии для заповедных целей. // Сб. географические проблемы развития заповедного дела. Самарканд, 1986. С.4-
4. Агроклиматические ресурсы Бухарской области. Ленинград, Гидрометеиздат, 1972.-120 с.
5. Баратов П.Б. Природные ресурсы Зарафшанской долины и их использование. Ташкент, «Фан», 1977.-116 с.
6. Buxoro viloyatining yillik statistik to'plami 2020 yil yanvar-dekabr; Buxoro, 2020- 27b.

7. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. М., 1979.
8. Мухаммаджонов А.Р., Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи, Т., 1972; 80-281 б.
9. Назаров И.Қ. География фанининг асосий муаммолари. Тошкент, “Мухаррир” 2013.- 212 б.
10. Тошов Х.Р. Табиий география: тарихи ва баъзи назарий масалалари. Монография. Бухоро. – “Дурдона” нашриёти. 2021. – 520 бет.
11. Toshov X.R., Rahimov O.N., Hikmatova G.I, Suv qadri, Buxoro., 2018; 52 b.